
MATBUOT ANJUMANI O'TKAZILDI

Bugun Rishton tumani hokimligi majlislar zalida Rishton tumanidagi mahallalarda fuqarolar yig'ini raislari saylovining o'tishiga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi. Unda mahalliy jurnalistlar, saylov komissiyasi a'zolari ishtirok etishdi. Matbuot anjumani ochiq muloqot tarzda tashkil etilib, unda Saylov komissiyasi raisi M. Mamajanov va saylov komissiyasi raisi o'rinbosari X. Xojixonovlar tumanimizdagi mahallalarda davom etayotgan saylovlar xususida ma'lumot berishdi. Matbuot anjumanida O'zbekiston Respublikasining fuqarolar yig'ini saylovi to'g'risidagi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qaroriga asosan, bu saylovlar oshkoralik, muqobillik hamda teng saylov huquqi tamoyillari asosida o'tkazilayotgani, fuqarolar raislikka nomzodlarning ma'ruzasi, kelgusi faoliyati dasturi bilan tanishib, yashirin ovoz berish orqali o'z saylov huquqlarini amalga oshirilayotgani qayd etildi.

2022-05-20 15:59:42